

NEMIS TILIDA LEKSIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA DIGITAL PLATFORMALAR SAMARADORLIGI

Bektosheva Shahnoza Komron qizi,

Qo'qon Davlat Universiteti nemis tili o'qituvchisi

G-mail:bektoshevashakhnoza@gmail.com

ORCID: 0009-0004-0381-2589

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tilini o'rganuvchilarda leksik kompetensiyani shakllantirishda digital platformalarning samaradorligi tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, mobil ilovalar va onlayn platformalar til o'rganish jarayonini individuallashtirish, motivatsiyani oshirish va mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda Qo'qon davlat universitetining 42 nafar nemis tili yo'nalishi talabarlari ishtirok etib, ular ikki guruhga (eksperimental va nazorat) ajratilgan. Eksperimental guruhda 8 hafta davomida Duolingo, Quizlet va Deutsch.info platformalaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, digital platformalardan foydalangan guruhda leksik kompetensiya 32% ga oshgan, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 14% ni tashkil etgan. Shuningdek, eksperimental guruh talabalarida chet tili tashvishi (foreign language anxiety) darajasi sezilarli darajada kamaygan.

Kalit so'zlar: leksik kompetensiya, digital platformalar, nemis tili, raqamli ta'lim, mobil ilovalar, Quizlet, Duolingo, Deutsch.info, chet tili tashvishi

Аннотация. В данной статье анализируется эффективность цифровых платформ в формировании лексической компетенции у изучающих немецкий язык. Современные цифровые технологии, в частности мобильные приложения и онлайн-платформы, играют важную роль в индивидуализации процесса изучения языка, повышении мотивации и поддержке самостоятельного обучения. В исследовании приняли участие 42 студента направления немецкого языка Кокандского государственного университета, которые были разделены на две группы (экспериментальную и контрольную). В экспериментальной группе в течение 8 недель использовались платформы Duolingo, Quizlet и Deutsch.info. Результаты показали, что в группе, использовавшей цифровые платформы, лексическая компетенция повысилась на 32%, тогда как в контрольной группе этот показатель составил 14%. Также у студентов экспериментальной группы значительно снизился уровень тревожности при изучении иностранного языка (foreign language anxiety).

Ключевые слова: лексическая компетенция, цифровые платформы, немецкий язык, цифровое обучение, мобильные приложения, Quizlet, Duolingo, Deutsch.info, тревожность при изучении иностранного языка.

Abstract. This article analyzes the effectiveness of digital platforms in developing lexical competence among German language learners. Modern digital technologies, particularly mobile applications and online platforms, play an important role in individualizing the language learning process, increasing motivation, and supporting independent learning. The study involved 42 German language students at Kokand State University, who were divided into two groups (experimental and control). In the experimental group, Duolingo, Quizlet, and Deutsch.info platforms were used over an 8-week period. The results showed that lexical competence in the experimental group increased by 32%, while in the control group it increased by 14%. It was also found that the level of foreign language anxiety significantly decreased among students in the experimental group.

Keywords: lexical competence, digital platforms, German language, digital learning, mobile applications, Quizlet, Duolingo, Deutsch.info, foreign language anxiety.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiyalash va xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Globalashuv jarayonlari, xalqaro hamkorlikning kengayishi va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talab nemis tilini, jumladan, uning leksik boyligini egallash zaruratini kundan-kunga oshirmoqda.

Leksik kompetensiya – bu nafaqat so'zlarning ma'nosini bilish, balki ularni kommunikativ vaziyatga mos ravishda to'g'ri, aniq va o'rinli qo'llay olish qobiliyatidir.[8] Chet tilini egallashda leksik kompetensiya asosiy komponentlardan biri hisoblanadi, chunki lug'at boyligi yetarli bo'lmagan holda grammatik qoidalarni mukammal bilish ham samarali muloqotni ta'minlay olmaydi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayoniga tubdan o'zgarishlar kiritdi. Endilikda til o'rganuvchilar istalgan joyda va istalgan vaqtda mobil ilovalar, onlayn platformalar va interaktiv vositalar yordamida mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, nemis tili kabi murakkab grammatik tuzilishga ega tilni o'rganishda digital platformalarning qulayliklari, interaktivligi va shaxsiylashtirilgan yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, digital platformalarning leksik kompetensiyani shakllantirishdagi samaradorligi, ularning an'anaviy usullardan afzalliklari va mavjud kamchiliklari hali to'liq o'rganilmagan. Ayniqsa, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida nemis tilini o'qitishda raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha empirik tadqiqotlar yetarli emas. Shu bois, ushbu tadqiqotning maqsadi – nemis tilida leksik kompetensiyani shakllantirishda turli digital platformalarning samaradorligini eksperimental tarzda aniqlash va tahlil qilishdir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ilk bor O'zbekiston oliy ta'limi sharoitida nemis tili leksikasini o'rgatishda bir nechta digital platformalarning qiyosiy tahlili o'tkazilgan va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari aniq raqamlar bilan asoslab berilgan.

Adabiyotlar tahlili. Leksik kompetensiya tushunchasi tilshunoslik va til o'qitish metodikasida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Dell Hymes tomonidan kiritilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasida leksik kompetensiya uning ajralmas qismi sifatida qaraladi .[8] Keyinchalik, Canale va Swain bu nazariyani rivojlantirib, leksik kompetensiyani sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalar bilan bog'liq holda tahlil qilgan.[5]

Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlarda leksik kompetensiyani shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'zni keng o'rganilgan. Kazhan va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda mobil ilovalar va Web 2.0 interaktiv vositalarining talabalarning nemis tili leksik kompetensiyasini oshirishdagi samaradorligi isbotlangan (Kazhan va boshq. 2019). Mualliflar leksik kompetensiyani shakllantirish mashqlarining ketma-ketligini belgilab, mobil ilovalar va blog texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini ochib bergan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli vositalar talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ishini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Nation o'zining "Learning Vocabulary in Another Language" asarida so'z boyligini o'zlashtirishning nazariy asoslarini yoritib, raqamli texnologiyalar yordamida takrorlash, mustahkamlash va kontekstda qo'llash imkoniyatlari kengayishini ta'kidlaydi (Nation 2001). Thornbury esa so'z o'rgatish metodikasida vizual vositalar va interaktiv mashqlarning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi (Thornbury 2002).

Vyatkina tomonidan olib borilgan tadqiqotda AQSh universitetlarida multimediali onlayn nemis tili kursining samaradorligi o'rganilgan (Vyatkina 2024). Natijalar shuni ko'rsatadiki, multimodal onlayn muhitda ma'no va shaklga e'tibor qaratishning murakkab o'zaro ta'siri til bilish darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Tadqiqotda talabalarning lug'at boyligi sezilarli o'sgan, ularning kurs materiallariga qiziqishi va ishtiroki yuqori bo'lgan.

Germaniyaning Dortmund texnik universitetida olib borilgan tadqiqotda Delucchi Danhier va González Ávalos tomonidan ishlab chiqilgan LexiGraph ilovasi nemis tili o'qituvchilarining lingvistik naqshlarni aniqlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.[6] Ushbu interaktiv veb-ilova til o'rganuvchilarga murakkab semantik va sintaktik ma'lumotlarni vizual tarzda o'zlashtirish imkonini beradi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan Qodirova chet tili ta'limida lingvistik kompetensiyani shakllantirishning metodik asoslarini o'rgangan (Qodirova 2019). Umarova esa talabalarda leksik kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligini tahlil qilgan (Umarova 2020). Karimova raqamli texnologiyalar asosida chet tili o'qitish jarayonini takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib o'tgan (Karimova 2021).

Islomov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda chet tili tashvishi (foreign language anxiety) va uning til o'rganish jarayoniga ta'siri tahlil qilingan.[9] Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarning salbiy baholanish qo'rquvi, ota-onalarning bosimi va sinf muhiti kabi omillar FLA darajasini oshirib, til o'zlashtirish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Islomov tomonidan texnika oliy ta'limida chet tili tashvishini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotda muhandislik yo'nalishi talabalarida FLA darajasi yuqori ekanligi aniqlangan.[9]

Islomova tomonidan sun'iy intellekt va ChatGPT ning til o'rganishdagi roli o'rganilgan.[9] Tadqiqotda ChatGPT yozma ko'nikmalar va leksik kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita ekanligi, biroq pragmatik aniqlik va madaniy sezgirlik masalalarida cheklovlar mavjudligi qayd etilgan.

Bektosheva raqamli platformalar yordamida nemis tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish masalalarini o'rgangan.[4] Tadqiqotda interaktiv vositalarning og'zaki nutqni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, Bektosheva tomonidan nemis tilini masofaviy o'qitishda interaktiv vositalarning roli yoritilgan bo'lib, unda LMS tizimlari va onlayn platformalarning imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.[4]

Bektoshev tomonidan passiv vosita va uning tarjima-dagi o' rni, shuningdek, yumor va madaniy farqlarning pragmatik tahlili bo' yicha tadqiqotlar olib borilgan.[2] Bektoshev formativ baholashning talabalar motivatsiyasi va ta' lim natijalariga ta' sirini o' rganib, interaktiv baholash vositalarining samaradorligini asoslab bergan [2]

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko' rsatadiki, leksik kompetensiyani shakllantirishda digital platformalarning samaradorligi xalqaro va milliy miqyosda e' tirof etilgan. Biroq, aynan nemis tili misolida, O' zbekiston oliy ta' lim tizimida turli platformalarning qiyosiy tahlili va ularning samaradorlik ko' rsatkichlari yetarlicha o' rganilmagan. Ushbu tadqiqot aynan shu bo' shliqni to' ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda aralash metod qo' llanildi: miqdoriy (test natijalari, statistik tahlil) va sifatli (so' rovnoma, intervyu) ma' lumotlar to' plash usullari birlashtirildi. Tadqiqot dizayni kvazi-eksperimental bo' lib, unda ikki guruh – eksperimental va nazorat guruhlari ishtirok etdi.

Tadqiqotda Qo' qon davlat universitetining nemis tili yo' nalistida tahsil oluvchi 42 nafar 2-bosqich talabalari ishtirok etdi. Ishtirokchilarning yosh oralig' i 19-21 yoshni tashkil etdi. Talabalar ikki guruhga ajratildi: eksperimental guruh va nazorat guruhi . Guruhlar tenglashtirilgan bo' lib, ularning boshlang' ich nemis tili bilim darajasi (A2-B1) va leksik kompetensiya ko' rsatkichlari o' zaro farq qilmadi.

Tadqiqot 2025-yil sentabridan noyabrigacha (8 hafta) davom etdi va quyidagi bosqichlarni o' z ichiga oldi:

1. *Boshlang' ich test (pretest):* Ikkala guruh talabalarining leksik kompetensiya darajasi aniqlandi. Test 50 ta ko' p tanlovli va kontekstual topshiriqlardan iborat bo' lib, unda so' z boyligi, so' zlarni kontekstda qo' llash va sinonim/antonimlarni aniqlash ko' nikmalari tekshirildi.

2. *Intervensiya:* Eksperimental guruh 8 hafta davomida nemis tili leksikasini o' rganishda quyidagi digital platformalardan foydalandi: Duolingo (kunlik mashqlar), Quizlet (flashcards va o' yinlar) va Deutsch.info (interaktiv grammatika va leksika mashqlari). Nazorat guruhi esa an' anaviy usullarda (darslik, matn, lug' at yodlash) ta' lim oldi. Ikkala guruhda ham mavzu va so' zlar ro' yxati bir xil edi.

3. *Yakuniy test (posttest):* Intervensiyadan so' ng ikkala guruhda leksik kompetensiya darajasi qayta aniqlandi. Test boshlang' ich test bilan bir xil qiyinchilik darajasiga ega bo' lib, variantlar farqli edi.

4. *So' rovnoma va intervyu:* Eksperimental guruh talabalari o' rtasida digital platformalarga munosabat, ularning qulayliklari va kamchiliklari bo' yicha so' rovnoma o' tkazildi. Shuningdek, 10 nafar talaba bilan chuqurlashtirilgan intervyu olib borildi.

Chet tili tashvishi (foreign language anxiety) darajasini aniqlash. Tadqiqotda Islomov tomonidan ishlab chiqilgan metodika asosida talabalarning FLA darajasi ham o' rganildi .[9] Bu borada Horwitz va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan "Foreign Language Classroom Anxiety Scale" (FLCAS) so' rovnomasidan foydalanildi [7]

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot natijalari digital platformalardan foydalangan eksperimental guruh talabalarining leksik kompetensiyasi sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi.

Leksik kompetensiya dinamikasi. Boshlang'ich test natijalariga ko'ra, eksperimental guruhning o'rtacha balli 62.4, nazorat guruhiniki esa 63.1 ni tashkil etdi. Yakuniy test natijalariga ko'ra, eksperimental guruhning o'rtacha balli 82.5 ga yetdi, bu 32.2% o'sishni ko'rsatadi. Nazorat guruhida esa o'rtacha ball 71.9 ni tashkil etib, 13.9% o'sish qayd etildi.

1-rasm. Eksperimental va nazorat guruhlarida leksik kompetensiya o'sish dinamikasi

Guruh	Boshlang'ich test natijasi	Yakuniy test natijasi	O'sish ko'rsatkichi
Eksperimental guruh	62.4	82.5	32.2 %
Nazorat guruhi	63.1	71.9	13.9 %

Platformalar bo'yicha samaradorlik. Eksperimental guruh talabalarining platformalardan foydalanish chastotasi va ularning samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Eng yuqori samaradorlik Quizlet platformasida qayd etildi (o'rtacha ball o'sishi 37%), undan keyin Duolingo (34%) va Deutsch.info (29%). Talabalar tomonidan eng ko'p foydalanilgan platforma Duolingo bo'ldi (kunlik foydalanish o'rtacha 25 daqiqa).

Chet tili tashvishi (foreign language anxiety) darajasi. FLCAS so'rovnomasi natijalariga ko'ra, eksperimental guruhda FLA darajasi sezilarli darajada kamaydi. Intervensiyadan oldin eksperimental guruhda o'rtacha FLA balli 94.6 bo'lgan bo'lsa, intervensiyadan so'ng bu ko'rsatkich 76.2 ga tushdi (19.4% ga kamayish). Nazorat guruhida esa FLA darajasi 92.8 dan 87.4 ga tushdi (5.8% ga kamayish).

2-rasm. Chet tili tashvishi (FLA) darajasining o'zgarishi

Guruh	Intervensiyadan oldin	Intervensiyadan so'ng	Kamayish ko'rsatkichi
Eksperimental guruh	94.6 ball	76.2 ball	19.4 %
Nazorat guruhi	92.8 ball	87.4 ball	5.8 %

Tadqiqot natijalari digital platformalarning nemis tilida leksik kompetensiyani shakllantirishdagi samaradorligini aniq ko'rsatdi. Eksperimental guruhda leksik kompetensiyaning 32% ga oshishi, nazorat guruhidagi 14% o'sishdan sezilarli darajada yuqori. Bu natijalar Kazhan va boshqalar hamda Vyatkina tadqiqotlari bilan mos keladi (Kazhan va boshq. 2019; Vyatkina 2024).

Digital platformalarning samaradorligi bir qancha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, platformalarning interaktivligi va o'yinlashtirish (gamification) elementlari talabalarining motivatsiyasini oshiradi. Raqamli resurslar talabalarni passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Duolingo misolida kuzatilgan kunlik mashqlar va darajalar tizimi talabalarni muntazam ravishda shug'ullanishga undaydi.

Ikkinchidan, Quizlet kabi platformalarda takrorlash va mustahkamlash imkoniyatlarining kengligi soʻzlarni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi. Nation taʼkidlaganidek, soʻz boʻyligini samarali oʻzlashtirish uchun takroriy mashqlar va kontekstda qoʻllash muhim ahamiyatga ega (Nation 2001). Quizletʼning flashcards va oʻyin shaklidagi mashqlari aynan shu ehtiyojni qondiradi.

Uchinchidan, Deutsch.info kabi platformalarda leksik va grammatik materiallarning integratsiyasi soʻzlarni kontekstda oʻrganish imkonini beradi. Thornbury taʼkidlaganidek, soʻzlar kontekstdan ajralgan holda emas, balki real muloqot vaziyatlarida oʻrganilganda samaraliroq oʻzlashtiriladi (Thornbury 2002).

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri – eksperimental guruhda chet tili tashvishi (foreign language anxiety) darajasining sezilarli kamayishidir. Bu holatni Islomov tomonidan taʼkidlangan omillar bilan izohlash mumkin (Islomov 2025). Digital platformalarda talabalar xato qilishdan qoʻrqmaydi, chunki ularning javoblari hech kim tomonidan salbiy baholanmaydi. Bu esa Horwitz va boshqalar taʼkidlagan “salbiy baholanish qoʻrquvi” omilini kamaytiradi.[7] Shuningdek, mustaqil ravishda, oʻz tempida oʻrganish imkoniyati talabalarning oʻziga boʻlgan ishonchini oshiradi.

Islomov tomonidan texnika oliy taʼlimida oʻtkazilgan tadqiqotda FLA darajasi yuqori ekanligi aniqlangan edi.[9] Ushbu tadqiqotda digital platformalar FLA ni kamaytirishda samarali vosita boʻlishi mumkinligi koʻrsatildi. Bu, ayniqsa, texnika yoʻnalishi talabalar uchun muhim, chunki ular koʻpincha gumanitar fanlar talabalariga nisbatan til oʻrganishda koʻproq tashvishga uchraydi.

Islomova tomonidan oʻrganilgan ChatGPT kabi sunʼiy intellekt vositalari ham leksik kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol oʻynashi mumkin.[9] Ushbu tadqiqotda toʻgʻridan-toʻgʻri sunʼiy intellekt vositalari oʻrganilmagan boʻlsa-da, interaktiv platformalarning samaradorligi shuni koʻrsatadiki, AI texnologiyalarining integratsiyasi yanada yuqori natijalar berishi mumkin.

Bektosheva tomonidan oʻrganilgan masofaviy taʼlim va interaktiv vositalarning roli ushbu tadqiqotda ham oʻz tasdigʻini topdi.[4] Talabalar mustaqil taʼlim olish imkoniyatlari kengayganini, bu esa ularning til oʻrganish samaradorligiga ijobiy taʼsir koʻrsatganini taʼkidladi.

Biroq, tadqiqot davomida baʼzi muammolar ham aniqlandi. Internet tezligining pastligi, baʼzi platformalarning bepul versiyasidagi cheklovlar va texnik jihozlar yetishmasligi digital platformalardan toʻliq foydalanishga toʻsqinlik qilmoqda. Shuningdek, Bektoshev tomonidan oʻrganilgan formativ baholash tizimlarining platformalarga integratsiyasi yetarli darajada emasligi kuzatildi.[2]

Xulosa. Ushbu tadqiqot nemis tilida leksik kompetensiyani shakllantirishda digital platformalarning samaradorligini empirik jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot natijalariga koʻra:

Digital platformalar (Duolingo, Quizlet, Deutsch.info) nemis tili leksikasini o'zlashtirishda an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq. Eksperimental guruhda leksik kompetensiya 32% ga oshgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 14% ni tashkil etdi.

Digital platformalar chet tili tashvishi (foreign language anxiety) darajasini kamaytirishga yordam beradi. Eksperimental guruhda FLA darajasi 19.4% ga kamaygan bo'lsa, nazorat guruhida 5.8% ga kamaydi.

Talabalarning digital platformalarga munosabati ijobiy bo'lib, ular motivatsiyaning oshishi, mustaqil ta'lim imkoniyatlari va tashvishning kamayishini asosiy afzalliklar sifatida qayd etdi. Platformalar orasida Quizlet eng samarali deb topildi, undan keyin Duolingo va Deutsch.info platformalari keladi.

Amaliy tavsiyalar:

Oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitishda digital platformalarni dars jarayoniga muntazam integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

O'qituvchilar uchun digital platformalardan foydalanish bo'yicha maxsus o'quv kurslari tashkil etish.

Universitetlarda internet tezligi va texnik jihozlar sifatini yaxshilash.

Platformalarning o'zbek tilidagi versiyalarini yaratish yoki mahalliy platformalarni ishlab chiqish.

FLA darajasi yuqori bo'lgan talabalar uchun digital platformalarga asoslangan maxsus dasturlar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bektoshev, Mubashirxon Odilbek o'g'li. "FORMAL AND SYNTACTIC ASPECTS OF THE PASSIVE VOICE." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, vol. 3, no. 6, 2022, pp. 1556–1559.
2. Bektoshev, Mubashirxon Odilbek o'g'li. "EVALUATING THE IMPACT OF FORMATIVE ASSESSMENT ON STUDENT MOTIVATION AND LEARNING OUTCOMES." *CONFERENCE OF INNOVATIVE HORIZONS IN SCIENCE & ENGINEERING*, vol. 1, no. 2, 2025, pp. 67-71.
3. Bektosheva, Shahnoza Komron qizi. "RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NEMIS TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH." *"World of Philology" Scientific Journal*, vol. 5, no. 2, 2026a.
4. Bektosheva, Shahnoza Komron qizi. "NEMIS TILINI MASOFAVIY O'QITISHDA INTERAKTIV VOSITALARNING ROLI." *Advances in Science and Education*, vol. 2, no. 4, 2026b, pp. 42-46.
5. Canale, Michael, and Merrill Swain. "Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing." *Applied Linguistics*, vol. 1, no. 1, 1980, pp. 1-47.
6. Delucchi Danhier, Renate, and Paula González Ávalos. "Teaching Language-Specific Preferences in the Native Language: An Interactive Web App for Prospective Teachers." *LingBaW*, 2025.
7. Horwitz, Elaine K., Michael B. Horwitz, and Joann Cope. "Foreign Language Classroom Anxiety." *The Modern Language Journal*, vol. 70, no. 2, 1986, pp. 125-132.
8. Hymes, Dell. "On Communicative Competence." *Sociolinguistics*, edited by J. B. Pride and J. Holmes, Penguin, 1972, pp. 269-293.
9. Islomov, Utkirjon. "UNDERSTANDING FOREIGN LANGUAGE ANXIETY AND ITS IMPACT ON LEARNING."